

Date: 17<sup>th</sup> April-2026

**QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATINI BAHOLASH MARKAZI DA O'TKAZILGAN INVENTARIZATSIYA NATIJALARINI RASMIYLASHTIRISH**

**Муқумов Зафар Авазмуротович**

ТДИУ “Молиявий ҳисоб ва ҳисобот” кафедраси доценти

**Файзуллаева Ойдин**

ТДИУ магистратура талабаси

“Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatini baholash markazi” tarkibida inventarizatsiya o'tkazish jarayonining eng muhim bosqichi uning natijalarini rasmiylashtirishdir. Bu jarayonda moddiy resurslar, laboratoriya jihozlari va o'lchov vositalarining mavjudligini tasdiqlanadi. Bu esa markazning moliyaviy, ilmiy va boshqaruv faoliyatining ishonchliligini ta'minlaydi.

Rasmiylashtirish jarayoni orqali aniqlangan kamomadlar yoki ortiqchalar nafaqat buxgalteriya hisobi tizimida, balki ilmiy tahlil va laboratoriya ishlari sifatini nazorat qilishda ham aks etadi. Shu bois, ushbu bosqichga markazda katta e'tibor qaratiladi.

Inventarizatsiya o'tkazish jarayonida olingan natijalarni rasmiylashtirish markazda alohida xususiyatlarga va yondashuvlarga ega. Chunki markazning tarkibida turi laboratoriyalar mavjud. Bu esa har bir laboratoriya uchun alohida yondashuvni talab qiladi. Paxta mahsulotlarini sinov laboratoriyasi, urug'lik materiallar laboratoriyasi va don mahsulotlarini tahlil qiluvchi laboratoriya har biri o'ziga xos jihatlarga ega. Shu sababli, har bir laboratoriya faoliyati doirasida inventarizatsiya natijalarini qayd etish tartibi va hujjat shakllari farqlanadi.

Markazda inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish inventarizatsiya komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun komissiya tarkibiga kiruvchi a'zolaridan har bir laboratoriya faoliyati bilan tanish bo'lishi, texnik vositalar va laboratoriya materiallarini aniq baholay olishlari talab etiladi.

Inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish maxsus hujjatlar orqali amalga oshiriladi. “Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatini baholash markazi”da qo'llaniladigan asosiy hujjatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

\* inventarizatsiya ro'yxatlari – laboratoriya jihozlari, reagentlar, urug'lik materiallar va boshqa aktivlarning mavjudligini qayd etadi.

\* asosiy vositalar inventarizatsiya yozuvi - markazda asosiy vositalar ham inventarizatsiyada o'tkaziladi va bu asosiy vositalarning inventarizatsiyasi deyiladi. Ushbu asosiy vositalar inventarizatsiyasida olingan ma'lumotlarni rasmiylashtirish uchun asosiy vositalar inventarizatsiya yozuvidan foydalaniladi. Ushbu yozuv asosiy vositalarning saqlanishiga moddiy javobgar bo'lgan shaxslar tomonidan tuziladi hamda komissiya a'zolari va moddiy javobgar shaxslarning o'zlari tomonidan imzolanadi, so'ngra buxgalteriya bo'limiga topshiriladi;

\* inventarizatsiya yorlig'i - Bu hujjatga ehtiyoj tayinlangan inventarizatsiya o'tkazish komissiyasi a'zolari ishlab chiqarish sharoitlariga ko'ra omborlardagi xom-ashyo



Date: 17<sup>th</sup> April-2026

va boshqa moddiy boyliklarni darhol sanab chiqa olmaganlarida va inventarizatsiya ro`yxatida aks ettira olmaganlarida qo`llaniladi . BU yorliq komissiya a`zolari tomonidan to`ldiriladi va hisoblangan yani sanashga ulgurilmagan tovar moddiy boyliklar bilan birga ular joylashgan bo`limda saqlanadi ;

\* tovar - moddiy boyliklari inventarizatsiya ro`yxati. Ushbu hujjatda markazdagi xom-ashyo ,materiallar , tayyor mahsulotlar , tovarlar va boshqalarni haqiqatdagi qolgan miqdorini ifodalashda qo`llanib ,o`rnatilgan moddiy javobgarligi bo`yicha alohida tuziladi . Inventarizatsiya ro`yxati inventarizatsiya komissiya a`zolari va moddiy javobgar shaxslar tomonidan imzolanadi , ular imzo qo`yishgach , buxgalteriya bo`limiga jo`natiladi solishtirma vedemostni tuzish uchun .

\* jo`natilgan tovarlar inventarizatsiya dalolatnomasi. Bu dalolatnoma tashkilotda korxonalariga jo`natilgan tovarlar mavjud bo`lsa , ularning haqiqiy qiymatini aniqlashda foydalaniladi . To`lanishi kerak bo`lgan muddat o`tib ketgan yoki to`lsh muddati yetmagan jo`natilgan tovarlar haqida alohida nusxada to`ldiriladi . To`ldirilgan nusxa komissiya a`zolari tomonidan imzolanadi va buxgalteriya bo`limiga jo`natiladi .

\* saqlash uchun olingan yoki berilgan tovar moddiy boyliklar inventarizatsiya ro`yxati . Bu ro`yxat maxsus saqlash uchun olingan yoki berilgan tovar moddiy zaxiralarning haqiqiy qiymatini aniqlash va tekshirish uchun qo`llaniladi . Inventarizatsiya ro`yxati alohida nusxada to`ldiriladi va komissiya a`zolari hamda moddiy javobgar bo`lgan shaxs tomonidan imzolanadi . Imzolangan hujjat solishtirma dalolatnoma tuzish uchun buxgalteriya bo`limiga jo`natiladi .

\* yo`ldagi materiallar va tovarlar inventarizatsiya dalolatnomasi .Ushbu dalolatnoma inventarizatsiya o`tkaziladigan muddatda yo`lda bo`lgan mahsulotlar va tovarlarning qiymatini va miqdorini aniqlahsda foydalaniladi . Inventarizatsiya dalolatnomasi tovar moddiy boyliklarning yo`lda ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida to`ldiriladi va komissiya a`zolari tomonidan imzolanadi . Imzo bilan tasdiqlangan hujjat buxgalteriya bo`limizga topshiriladi .

\* asosiy vositalarning tugallanmagan ta`mirlash dalolatnomasi. Bu dalolatnoma korxonada kapital ta`mirlash ishlari yakunlab bitkazilmagan bino , inshoot , texnik ta`minot vositalari , asbob-uskunalar va boshqa asosiy vositalar obyektlari bo`lgan holda , ushbularni inventarizatsiya qilishda qo`llaniladi . Ular inventarizatsiya jarayonida bir nusxada to`ldiriladi va komissiya a`zolari shuningdek moddiy javobgar shaxslar tomonidan imzolanib , buxgalteriya bo`limiga topshiriladi .

\* kelgusi davr xarajatlarining inventarizatsiya dalolatnomasi . Bu dalolatnoma korxonalarda kelgusi davr xarajatlari yuritiladigan buxgalteriya schyotlaridagi ma`lumotlarni tekshirish asosida tuziladi . Bu dalolatnoma ham inventarizatsiya o`tkazish jarayonida tuziladi va komissiya a`zolari tomonidan imzolanib , buxgalteriyaga jo`natiladi .

\* pul mablag`larining inventarizatsiya dalolatnomasi korxonada hisobidagi mavjud bo`lgan naqd pullarning haqqoniy qiymatini aniqlash uchun o`tkazilayotgan inventarizatsiya ma`lumotlarini aks ettirishda qo`llaniladi . Komissiya a`zolari kassadagi pul



Date: 17<sup>th</sup> April-2026



mablag`lari , qimmatbaho qog`ozlar , limitlashtirilgan chek daftarlarini sanash orqali olingan ma`lumotlar bilan pul mablag`larining inventarizatsiya dalolatnomasini ikki nusxada to`ldiradilar . To`ldirilgan dalolatnomaga komissiya a`zolari va moddiy javobgar shaxslar tomonidan imzo qo`yiladi . Imzolangan hujjatning bir nusxasi buxgalteriya bo`limiga jo`natiladi , ikkinchi nusxasi esa moddiy javobgar shaxsda qoladi . Moddiy javobgar shaxs o`zgarayotgan holda uchbu dalolatnoma uch nusxada tuziladi , biri buxgalteriya bo`limiga jo`natiladi , ikkinchi nusxa moddiy javobgarlikni topshirayotgan shaxsda qoladi , uchinchi nusxa moddiy javobgarlikni qabul qilayotgan shaxsga beriladi .

\* xaridorlar bilan hisoblashish inventarizatsiya dalolatnomasi . Korxonada bilan hisob-kitobda bo`lgan boshqa mol yetkazib beruvchilar , xaridorlar shuningdek turli debitorlar hamda kreditorlar bilan hisoblashish inventarizatsiya ma`lumotlarini rasmiylashtirish uchun xaridorlar bilan hisoblashish dalolatnomasi tuziladi . Bu dalolatnoma bir nusxada tuziladi va unda tegishli schyot ma`lumotnomalari asosida aniqlangan qoldiq summalari aks ettirilgan bo`ladi . Dalolatnoma komissiya a`zolari tomonidan imzolab rasmiylashtiriladi va buxgalteriya bo`limiga yuboriladi .

\* solishtirma qaydnoma . Inventarizatsiya o`tkazish jarayonlarida yig`ilgan ma`lumotlar asosida , agar inventarizatsiya o`tkazish vaqtida buxgalteriya hisobi ma`lumotlari va amaldagi holat orasida farq aniqlangan bo`lsa rasmiylashtirish maqsadida solishtirma qaydnoma tuziladi . Bu taqqoslash hujjati hisoblanadi yani buxgalteriyadagi ma`lumotlar va inventarizatsiya o`tkazish natijasida aniqlangan real holatdagi ma`lumotlar . Ushbu hujjat bir nusxada tuziladi va rasmiylashtirilgach buxgalteriya bo`limida qonunda belgilab qo`yilgan muddatga qadar saqlanadi . \* komissiya xulosasi – aniqlangan tafovutlar, sabablar va mas`ul shaxslar haqida yakuniy xulosa beradi.

Inventarizatsiya natijalari asosida tuzilgan hujjatlar yuridik kuchga ega bo`lib ulardan tur maqsadlarda foydalaniladi . Masalan :

- moddiy javobgarlikni aniqlash;
- moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash;
- sud va moliyaviy tekshiruvlarda dalil sifatida foydalanish.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, hujjatlar noto`g`ri to`ldirilsa yoki ma`lumotlar yetarli bo`lmasa, bu markaz faoliyatining samaradorligiga salbiy ta`sir ko`rsatadi va moliyaviy zararlar keltirishi ham mumkin. Shuning uchun hujjatlarning to`g`ri to`ldirilishi “Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sifatini baholash markazi” uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi .

Inventarizatsiya ro`yxatlari tarkibida har bir laboratoriya obyekti uchun alohida ma`lumotlar kiritiladi. Misol uchun , paxta laboratoriyasida tolalarning turi va texnik holati, urug`lik laboratoriyasida urug`larning unuvchanlik darajasi va saqlash sharoiti, don mahsulotlari laboratoriyasida esa ularning fizik va kimyoviy parametrlarining qayd etilishi muhimdir. Ya`ni turli laboratoriyalarning inventarizatsiya ro`yxatlari ham turlicha bo`ladi .

Paxta mahsulotlarini sinov laboratoriyasida :

Paxta laboratoriyasida inventarizatsiya natijalari texnik jihozlarning ishlash qobiliyati va tolalarning sifat ko`rsatkichlarini hisobga olgan holda rasmiylashtiriladi. Har

Date: 17<sup>th</sup> April-2026

bir asbob va qurilmaning texnik holati, kalibrovka holati va joylashuvi alohidadan qayd etiladi. Agar nosozlik aniqlansa, tegishli dalolatnoma tuziladi va javobgar shaxslar belgilanadi.

Urug'lik materiallar laboratoriyasida :

Urug'lik materiallar laboratoriyasida inventarizatsiya jarayoni yanada murakkabroq. U yerda faqat moddiy zaxiralar emas, balki urug'larning sifat ko'rsatkichlari (unuvchanlik, kasallikka chidamlilik, saqlash muddati) ham rasmiylashtiriladi. Shu tarzda, aynan shu laboratoriyada inventarizatsiya nafaqat hisob-kitob vositasi, balki sifat nazorati mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi.

Don mahsulotlarini tahlil laboratoriyasida :


Don va uni qayta ishlash mahsulotlari laboratoriyasida inventarizatsiya jarayonini tashkil qilish va olingan natijalarni rasmiylashtirish boshqa laboratoriyalarga qaraganda nisbatan qiyinroq hisoblanadi . Bu laboratoriyada xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarning mavjudligini, shuningdek, ularni tahlil qilishda foydalaniladigan texnik vositalarni qamrab oladi. Bu jarayon ko'p bosqichli va tizimli yondashuvni talab qiladi. Inventarizatsiya natijalarida aniqlangan tafovutlar alohida hujjatlarda qayd etiladi. Kamomad aniqlanganda sabablari o'rganiladi , moddiy javobgar shaxslarni belgilanadi , zarur hollarda moliyaviy javobgarlikni ta'minlanadi . Ortiqcha aniqlanganda hisobga olinadi va foydaga o'tkaziladi hamda kelib chiqish sabablarini tahlil qilib hisobotga kiritiladi. Mazkur jarayonlar aniq va shaffof bo'lishi inventarizatsiya natijalarining ishonchligini ta'minlaydi.

Inventarizatsiya natijalari asosida to'ldirilgan hujjatlar buxgalteriya hisobiga kiritiladi. Shu orqali ortiqcha yoki yetishmayotgan aktivlar qayd etiladi , moliyaviy hisobotlar haqqoniyliги ta'minlanadi , boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun aniq ma'lumot yaratiladi. Inventarizatsiya natijalari buxgalteriya hisob tizimlariga kiritilishida kamchiliklar aniqlansa, darhol tuzatish chorasi ko'riladi.





Inventarizatsiya dinamikasi (2022-2024)



2.2-rasm . “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifatini baholash markazi” da 2022-2024-yillarda o‘tkazilgan inventarizatsiyalardan olingan natijalar dinamikasi <sup>31</sup>

Yuqoridagi rasmda 2022 , 2023 va 2024-yillarda “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifatini baholash markazi” da o‘tkazilgan inventarizatsiyalardan olingan natijalar tasvirlangan. Jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki , 2022-2024-yillarda markazda deyarli teng miqdorda inventarizatsiyalar o‘tkazilgan va xatolik foizi kamayib borgan . Lekin inventarizatsiyada aniqlangan kamomad va ortiqchaliklar butkul katta o‘zgarishlarni qayd etgan . 2022-yilda eng kam miqdorda ortiqchalik aniqlangan bo‘lsa , 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich ortgan , kamomad aniqlanish holatlarida esa buning aksini ya‘ni kamayib borish tartibini ko‘rishimiz mumkin . Xatolik fozining kamayishini hisobga olgan holda markazning inventarizatsiya o‘tkazish samaradorligi oshib borgan deyish mumkin .

“Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifatini baholash markazi”da inventarizatsiya natijasida aniqlangan kamomadlar 5910- „Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar “ hisobvarog`ida yuritiladi . Inventarizatsiya natijasida aniqlangan kamomadlarga moddiy javobgar shaxs aniqlanadi va topiladi . Moddiy javobgar shaxs aniqlanganda 4730- „Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimlarning qarzi “ hisobvarog`idan foydalaniladi . “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifatini baholash markazi”da kamomadlar bozor narxi bo‘yicha undiriladi .

<sup>31</sup> Muallif tomonidan “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifatini baholash markazi” dan olingan ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan

Date: 17<sup>th</sup> April-2026

Kamomad aniqlansa va moddiy javobgar shaxs topilsa buxgalteriya hisobi hisobvaroqlar rejasida :

Debet 4730- „Moddiy zararni qoplash bo`yicha xodimlarning qarzi “

Kredit 5910-„Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo`qotishlar“ ko`rinishida hisobga olinadi .

Moddiy javobgar shaxs kamomadni o`z ish haqi evaziga qoplasa , buxgalteriya hisobi hisobvaroqlar rejasida :

Debet 6710 - „, Ish haqi bo`yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar “

Kredit 4730 - „Moddiy zararni qoplash bo`yicha xodimlarning qarzi “ ko`rinishida hisobga olinadi .

Moddiy javobgar shaxs kamomadni naqd pul ko`rinishida kassaga qo`ysa , buxgalteriya hisobi hisobvaroqlar rejasida :

Debet 5110 - „, Milliy valyutadagi pul mablag`lari “

Kredit 4730 - „Moddiy zararni qoplash bo`yicha xodimlarning qarzi “ ko`rinishida hisobga olinadi .

Moddiy javobgar shaxs kamomadni asosiy vosita sifatida korxonaga olib kirsam , buxgalteriya hisobi hisobvaroqlar rejasida :

Debet 0100 - „,Asosiy vositalar “

Kredit 4730 - „Moddiy zararni qoplash bo`yicha xodimlarning qarzi “ ko`rinishida hisobga olinadi .

Kamomadlar va zararlar uchun javobgar bo`lgan insonni aniqlash har doim ham mumkin bo`lvermaydi . Bunday taqdirda markazda „, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan „,Mahsulot ( ish , xizmat ) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risida”gi nizomga ko`ra , „, kutilayotgan yo`qotish normasidan ortiqcha bo`lgan qimmatli buyumlar kamomadini va qimmatli buyumlarning shikastlanishi natijasidagi yo`qotishlarni ishlab chiqarish yoki davr xarajatlari sifatida hisobdan chiqarishi yoxud ularni moliyalashtirish ( mablag`lar ) ni kamaytirish uchun tashkilot smetasida aks ettirishi mumkin “<sup>32</sup>

Kamomadlar uchun moddiy javobgar shaxs topilmasa , ushbu kamomadlar korxonam xarajatlari tomonidan qoplanadi va buxgalteriya hisobi hisobvaroqlar rejasida :

Debet 9430 - „, Operatsion xarajatlar “

Kredit 5910 - „,Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo`qotishlar “

Agarda kamomadlar norma doirasida bo`lsa , bu xarajat tannarx ichiga kiritib yuboriladi . Inventarizatsiya natijasida ortiqchaliklar aniqlansa bu korxonam daromadlari hisobiga qo`shiladi va va 9390 - „,Boshqa operatsion daromadlar “ schyotida hisobga olinadi , shuningdek , ortiqcha chiqqan barcha moddiy boyliklar qonunda belgilangan tartibda soliqqa tortiladi .

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot(ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizom, <https://lex.uz/docs/264422#26442>



Date: 17<sup>th</sup> April-2026

Amaldagi qonunchilikka ko`ra , qimmatliklarning tabiiy yo`qotish xususiyati ham mavjud . Ya`ni misol uchun qum , paxta tolasi , urug`lik materiallari , don va don mahsulotlari , suyuq mahsulotlar ( yoqilg`i , moy ) , oziq-ovqat mahsulotlari ( shakar , un va boshqalar ) hamda kimyoviy moddalar kabilar tabiiy yo`qotish xususiyatiga ega qimmatliklar sirasiga kiradi . Ularning tabiiy yo`qolishiga bug`lanish , qurish ya`ni namlikning kamayishi , sochilish , maydalanish , singish yoki shimilish sabab bo`ladi . ,, Qimmatliklarning belgilangan limitlar doirasidagi yo`qotishlar esa tashkilot rahbarlari tomonidan ishlab chiqarish va davr xarajatlari hisobidan yoki byudjet tashkilotlarini mablag` bilan ta`minlashni qisqartirish yo`li bilan hisobdan chiqariladi . Kamomad faqat haqiqatdan aniqlangan taqdirda zarar sifatida qabul qilinishi mumkin ‘‘<sup>33</sup>


Inventarizatsiyadan o`tkazilgan mol-mulk va obyektlarning nomlari , ularning miqdori belgilangan nomenklatura va o`lchov birliklari asosida ro`yxatga kiritiladi . Ro`yxatlar inventarizatsiya o`tkazish komissiyasining barcha a`zolari hamda moddiy boyliklar uchun javobgar bo`lgan shaxslar tomonidan imzolanadi . Inventarizatsiya o`tkazish jarayonlarining so`ngida moddiy boyliklar uchun javobgar bo`lgan shaxslar quyidagilarni tasdiqlovchi hujjatlarga imzo qo`yishadi : inventarizatsiya guruhi barcha tekshiruvlarni ularning ishtiroki bilan o`tkazganligi , inventarizatsiya guruhi bilan hech qanday kelishmovchilik yo`qligi va ro`yxatga kiritilgan boyliklar yana saqlash uchun qabul qilinganligi haqida tilxatlar .

Inventarizatsiya natijalari nafaqat moliyaviy hisobda, balki markazning boshqaruv va strategik qarorlarida ham asosiy axborot manbai hisoblanadi. Chunki aynan inventarizatsiya natijalari yordamida moddiy resurslar haqida , laboratoriya ish jarayonlari haqida ma`lumotlar olish mumkin . Masalan , natijalar yordamida moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi baholash , laboratoriya ish jarayonida ortiqcha yoki yetishmayotgan resurslar aniqlash , xodimlar faoliyati monitoring qilinadi har bir laboratoriya bo`limida sifat nazorati yaxshilash mumkin . Bu natijalar asosida turli qarorlar ham qabul qilinadi . Misol uchun, urug`lik laboratoriyasida unuvchanlik darajasi past bo`lgan urug`lar aniqlansa, ular uchun alohida chora-tadbirlar belgilanadi, shuningdek, laboratoriya texnik jihozlari tekshiriladi.

<sup>33</sup> Ruziyeva D . Qishloq xo`jaligi korxonalarida inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy asoslari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOt . - 2024. - T .2. -N7



Inventarizatsiya xatolari taqsimoti



2.3- rasm . Inventarizatsiya o`tkazish jarayonidan uchraydigan xatolar taqsimoti .<sup>34</sup>

Markazda inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirishda komissiya a`zolari ba`zi muammolarga duch kelishadi . Yuqoridagi diagrammadan ko`rishimiz mumkin bo`lgan muammolar . Diagrammadan ko`rinib turibdiki , markazda uchraydigan muammolarning asosiy qismi inson omiliga to`g`ri keladi 40% ko`rsatilgan. Shu bilan birga, hujjat xatolari 25% va nazorat sustligi 20% kabi ulushlarni egallaydi. Texnik muammolar esa nisbatan kamroq 15% ulushga ega.

“Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sifatini baholash markazi” bu muammolarni bartaraf etish uchun izchil ishlar amalga oshirib kelmoqda . Xususan , hujjatlarni standartlashtirish , elektron tizimlarni joriy etish ,xodimlar malakasini oshirish , ichki nazoratni kuchaytirish.

“Qishloq xo`jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi”da inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish murakkab va ko`p bosqichli jarayon bo`lib, markazning moliyaviy va ilmiy faoliyatining ishonchliligini ta`minlaydi.

Rasmiylashtirilgan natijalar yordamida laboratoriya jihozlari va moddiy resurslar to`liq hisobga olinadi , kamchiliklar va ortiqchalar aniqlanadi, boshqaruv va moliyaviy qarorlar uchun ishonchli ma`lumot yaratiladi ,resurslardan oqilona foydalanish ta`minlanadi. “Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sifatini baholash markazi”da

<sup>34</sup> “Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sifatini baholash markazi” dan olingan ma`lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan



Date: 17<sup>th</sup> April-2026

inventarizatsiya jarayonlarini amaliy jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon moddiy resurslar va laboratoriya jihozlarining haqiqiy holatini aniqlashda muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi. Inventarizatsiya orqali nafaqat mavjudlik tekshiriladi, balki resurslardan foydalanish darajasi, ularning saqlanish holati va samaradorligi ham baholanadi.

